

**“HUSN-U DIL” DOSTONIDA OBRAZLAR OLAMI VA ASARDA
QO‘LLANILGAN BADIY SAN’ATLAR**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbek Filologiyasi fakulteti. Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi
418- guruh talabasi*

Shukurova Gulchehra Alisher qizi.

javharijahon06@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Muhammad Niyoz Nishotiyning “Husnu-u Dil” dostonidagi badiiy obrazlar hamda yozuvchining badiiy mahorati yoritilgan. Nishotiyning asarni g`oyaviy-badiiy mazmunini ochish, timsollar olamini yoritishda qanday badiiy san`atlardan unumli foydalanganligi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar. Muhammad Niyoz Nishotiy, “Husn-u Dil” dostoni, badiiy obraz, badiiy san`at, talqin, tahlil.

Bizga “Husn-u Dil” dostoni, “Qushlar munozarasi” manzumasi hamda 1500 misra she'r-38 g'azal, 14 muhammas va 1 qasida hamda musaddasdan iborat adabiy merosni qoldirgan, Xiva adabiy muhitida o'zining dunyoviy muhabbatni kuylovchi asarlari orqali tanilgan Muhammad Niyoz Nishotiy nafaqat shoir, balki xalq dardini o'ylovchi, Vatanni, ona yurtni sevish, ma'rifatli adolatli siyosat olib borish, sevgi-sadoqat, mehr-muhabbat kabi insoniy his tuyg'ularni ulug'lovchi ijodkor sifatida ham ma'lum. Nishotiyning tarjimai holi haqida aniq ma'lumot bo'lmasada, o'quvchi shoirning “Husn-u Dil” dostoni orqali uning shaxs sifatidagi kamolotini anglab olish qiyin emas. Shuni ham ta'kidlash joizki, aynan nazmda yaratilgan “Husn-u Dil” dostoni shoir ijodining kamoloti va cho'qqisidir.

“Husn-u Dil” dostoni 15584 misra, 62 bobdan tashkil togan bo'lib, sevgi, muhabbat tuyg'ularini ulug'lovchi asardir. Dostonda Husn va Dilning muhabbat manzarasi ifoda etiladi. Asardagi Nazar, Aql, Ishq, Vafo, Mehr, Nomus, Hikmat, Sabr, Raqib obrazlari orqali esa turli fe'l-atvorga, odob-axloqqa ega bo'lgan kishilardagi o'ziga xos xususiyatlar orqali real hayotdagi turli toifa vakillariga ishora qilinadi. Nishotiy har bir obraz ustida mukammal ishlagan. Obrazlarning xarakter xususiyatlarini, timsoliy haykallarini jonli ifoda etadi. Har bir obraz bir olam, har bir obraz bir dunyo, har bir obraz o'zining axloqiy-ta'limiy g'oyasiga ega. Fikrimizning isboti o'laroq, asardagi Fo'ladshoh obrazining ta'rifi bayonida uning mardligi va jasurligi bilan bir qatorda olamda dong'i ketgan pahlavon ekani ham tavsiflanadi:

Savlati tig'i bila sheri dalir,

Bo'ldi bori beshaaro go'shagir.

Haybatidin tog' uza chiqdi nahang.

Shavkati ila moliki amloki jam,
Olamaro muxtaramu muxtasham.¹

Asarning bosh qahramoni bo'lgan Fuod(ko'ngilning mushohada maskani, oriflarning ilhomlarida hech bir ziddiyat va o'zgarish ko'rinmaydigan joy)ning tug'ilishi va unga ism qo'yilishi bayoni ham Nishotiyning har bir obrazga alohida did bilan yondashuvi, har bir obrazning kelgusidagi qahramonliklarining bashorati ko'rinishida nazm ila go'zal tarzda ifodalanadi.

Jabhasidin zohir o'lub mohlig',
Chehrasidin erdi ayon shohlig'.
Ziynati piroyai shohiy edi,
Lujjai anvori ilohiy edi.
Bog'i jahon ichra bo'lub sarv gul,
Ota-ano tug'mag'ay andoq o'g'ul.
Ko'rgan emas yetti ota to'rt ano,
Durjiaro o'yla duri bebaho.
Bo'lg'anida sabz bu naxli murod,
Hikmat eli o tanga dedi Fuod.²

Yuqorida ta'kidlaganimizdek "Husn-u Dil" dostoni ishqiy-sarguzasht doston bo'lib, doston syujeti Sharq adabiy muhitida mashhur bo'lgan mavzudir. Aynan shu nomda Yahyo Saboq Fattohiy, Abdurahmon Mushfiqiy tomonlaridan ham asarlar yozilgan. Nishotiy hayotiga oid izlanishlar olib borgan olim M.Qosimovanning ta'kidlashicha, Nishotiy dostoni shu xildagi boshqa dostonlardan ko'p jihatlari bilan farqlanadi. Jumladan, Fattohiy dostonida Gul va Daf, Naxl va Nay, Binafsha va Chang, Kosai chin va Nargiz munozaralari bo'lib o'tganligi haqida ma'lumot berib o'tilgan bo'lsa, Nishotiyning "Husn-u Dil" dostonida bu munozaralarning to'liq bayoni keltirilgan. Bu munozaralar orqali Nishotiy dostonning badiiyatini to'ldirib, yanada mavzu mohiyatini ochib bergan, mazmunan boyitgan.

Nishotiy "Husn-u Dil" dostonini avval nasrda yozib keyin nazmga o'girganligi haqidagi ma'lumotlarga tayangan holda shoir haqida shuni aytishimiz mumkinki, nazm Nishotiyning haqiqiy iste'dodini namoyon qilgan kalit bo'ldi. Nishotiy asarni o'qilishi oson, mukammal mazmun-mohiyat, tasavvufona qarashlarga ega bo'lgan orginal asar holiga keltirdi. Asarda qo'llanilgan badiiy san'atlar ham asar matnida ohangdorlikni va mavzu mohiyatini ochib berishda, inson tafakkurida obrazlar qiyofasini qiyoslashda mohiyatan irfoniy va ilohiy sir-asrorlarni ochishda mukammal ko'rinish, yuksak iste'dod natijasi o'laroq namoyon bo'ladi. Doston Sharq mumtoz adabiyotining mashhur asarlari qatoridan joy oldi. XVIII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropa tillariga tarjima qilinib o'rganilgan. Murakkab sarguzashtlarga boy bo'lgan sevgi qissasida

¹Холид Расул.Нишотий. Хусн ва Дил. Достон. Шеърлар.-Т.: Ф.Фулом,1967. 18-бет

²Холид Расул.Нишотий. Хусн ва Дил. Достон. Шеърлар.-Т.: Ф.Фулом,1967. 49-бет

qahramonlarning sof-samimiy sevgisi ulug'lanadi. "Obi hayot" mifining mazmun-mohiyati ham aynan ana shu sevgi-sadoqat, mehr-muhabbat, insoniylik, adolat tushunchalari ostida birlashadi.

Zulmati shabdin qutulib koinot,
Berdi quyosh chashmasi obi hayot.
Topti falak mazra'i obi ravon,
Dog'i zamin sabzasi ham toza jon.³

She'riyatda ramzlar va timsollar, badiiy obraz va qahramonlarning badiiy qiyofasini ochishda badiiy san'atlarning o'rni beqiyos. Mumtoz she'riyatda mashuqaning tik, chiroyli, adil qaddi sanuvarga, alifga, shamshodga, sochlari sunbulga, ko'zlari ohuga, joduga, qoshlari kamonga, yoyga, mehrobgga, yarim oyga, kipriklari nayzaga, o'qqa, lablari shahd-u shakkarga, aqiq, obi hayot, la'lga, tishlari injuga, marjonga o'xshatilgan. Bu o'xshatish va qiyoslashlar mumtoz adabiyotimizda an'anaga aylanib ulgurgan. Nishotiy "Husn-u Dil" dostonida ko'plab badiiy san'atlardan unumli foydalangan. Ayniqsa, bu manzara Husn tavsifi berilgan misralarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Dostonda beqiyos go'zallik timsoli sifatida tilga olinadigan Husn obrazini Nishotiy koinotdagi yagona tilsim sifatida Oyga qiyos etadi.

Chiqti falak taxti uza mohi Husn,
Bazm, tarab ham edi dixohi Husn.⁴

"Moh" so'zi forscha "Oy" degan ma'noni bildiradi. Hozirgi kunda faqat badiiy adabiyotda moh, mohi tobon shakllarida qo'llaniladi. Yuqoridagi misralarda Nishotiy Husnni Oyga qiyoslasa, doston mutoalasi davomida Husnning zulfini sunbulga, rangini anbarga, oraz(yuz)ini quyoshga qiyos etib, naqqoshlik va o'ymakorlikda Chin xalqi usta bo'lsa-da, bu go'zallikni hatto Chin hunarmandlari ham ko'rmaganligini chiroyli badiiy o'xshatishlar orqali ifodalaydi va bu tashbeh san'atining yorqin misoli bo'la oladi.

Zulfi oning sunbuli pur pechtob,
Rang onga chun anbari tar bu gulob,
Oraz ango erdi quyosh mahjabin,
Chekkon emas naqqoshini naqqoshi Chin.⁵

Nishotiy "Husn-u Dil" dostonida eng ko'p tashbeh (ar. o'xshatish) san'atidan foydalanadi. Har bir voqea va hodisani, shuningdek timsollar ta'rifini ifodalashda ham o'xshatishdan unumli foydalanadi. Obrazlarning ichki kechinmalari, his-tuyg'ularini ham, chiroyli badiiy dalillaydi. Biroq bu bilan faqat tashbeh san'ati asarning asosiy

³Холид Расул.Нишотий. Хусн ва Дил. Достон. Шеърлар.-Т.: Ф.Фулом,1967. 18-бет

⁴Холид Расул.Нишотий. Хусн ва Дил. Достон. Шеърлар.-Т.: Ф.Фулом,1967. 19-бет

⁵Холид Расул.Нишотий. Хусн ва Дил. Достон. Шеърлар.-Т.: Ф.Фулом,1967. 257-бет

mohiyatini ochgan deyolmaymiz , asarda bundan tashqari, Fo'ladshoh obrazi tavsifida ham badiiy san'atlarning ko'plab turini ko'rish mumkin:

Chokarining birisi Isfandiy
 Xotami tayiki erur dilpazir,
 Bordur aning matbahidin bir asir.
 Fahmu fatonatda Falotun shior,
 Taxti jalolatda Iskandar mador.
 Mulki diyonatda Sulaymon sarir,
 Mug'ri dili xalq anga farmonpazir.⁶

Ushbu misralarda Nishotiy o'tmishdagi mashhur zotlarga, mashhur tarixiy va adabiy qahramonlar nomini keltirish usuli bilan talmeh san'atidan o'rinli foydalangan. Bundan tashqari, asarda Qaytarish san'atining ham yorqin namunalarini ko'rishimiz mumkin:

Vah ne ajab, sham'i shabiston edi,
 Dahr eli boshig'a gul afshon edi,
 Dema gul afshon edi gavharfishon,
 Balki jahon boshig'a axtarfishon.⁷

Asarning markaziy qahramonlaridan biri bo'lgan Nazarning ilk safari Ofiyat shahri, shoh Nomus diyori tavsifi bayonoti berilgan yuqoridagi misralarda, "gul afshon" jumlasining aynan, ikkinchi misra oxiri va uchinchi misra o'rtasida qo'llash usuli orqali Qaytarish san'atining Radd-ul-aruz ilal-hashv (misra oxiridagi so'zning keying misra o'rtasida kelishi) usulidan foydalangan bo'lsa, uchinchi misraning boshida "dema" so'zini qo'llab, oldingi misradagi "gul afshon" jumlasini keyingi misrada unga qaraganda kuchliroq ifoda keltirib, fikrni yanada mukammalroq tarif qilish uchun Ruju' san'atidan foydalanadi. Ruju' ning mohiyati o'z-o'zini inkor qilib, fikrni kuchaytirishdadir.⁸ Dostondning ko'p o'rinlarida tazod san'atini ham ko'rishimiz mumkin:

Adli chog'i ollida teng mo'ru sher,
 Pashsha bila fiyl chu sheri dalir.

Bu yerda pashshaning hajman kichikligi va filning hajman kattali bilan qarshilantirilib tazod san'atini yuzaga chiqadi. Nishotiy ayni shu ikki misrasining o'zida tazod bilan birgalikda tanosub san'atidan ham unumli foydalanadi. Va ayni shu jonivor nomlarini (sher, pashsha, fiyl) mutanosiblikda qo'llash orqali tanosub san'ati yuzaga chiqadi. Quyidagi misrada ham tanosub san'atini uchratamiz:

Birni qilur dashti firoq uzra xor,

⁶Холид Расул.Нишотий. Хусн ва Дил. Достон. Шеърлар.-Т.: Ф.Фулом,1967. 19-бет

⁷Холид Расул.Нишотий. Хусн ва Дил. Достон. Шеърлар.-Т.: Ф.Фулом,1967. 32-бет

⁸ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T. : Sharq, 2008

Birga berur qasri visol ichra bor.
 Kimni qilib mulku vatandin judo,
 Gulshanu, gulzoru chamandin judo.

Yuqoridagi misralarda shoir “gulshan”, “gulzor”, “chaman”, “vatan” soʻzlarini mutanosublikda qoʻllab, tanosub sanʼatini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari Nishotiyning “Husn-u Dil” dostonida eng koʻp qoʻllagan sanʼatlaridan biri Kitobot sanʼatidir. Kitobot – ikkinchi nom bilan “Harfiy sanʼat” deb ham yuritiladi. Mumtoz adabiyotimizda anʼana tusini olgan va nihoyatda tashbihga yaqin boʻlgan ifoda usuli. Harfiy sanʼat arabiy harflar shakliga asoslanib lirik qahramon kechinmalarini, oʻy hayollarini oʻquvchi koʻz oʻngida yorqin tasvirlab berishni koʻzda tutadi. Bugungi kunda sheʼriyatimizda mazkur sanʼat turi qoʻllanmaydi hisob. Kitobotning mumtoz namunalarini malikulkalomlarimiz Lutfiy, Atoyi, Navoiy, Bobur kabi siymolar ijodida borligini bilamiz. Nishotiy ham bu borada ustozlaridan oʻrnak olgan.

Har neki bor rugʼamaro lom-u dol,
 Aksi diimdur sango der arzi hol.

Yaʼni, maktubimdagi lom-u dollar dilim dardlari aksi, ular senga holimdan habar beradi. Oʻquvchi “lom” va “dol” harflari naq ikki bukilgan holda yozilishini bilsa, oshiqning ahvoli gʻoyatda harob degan fikrni tushunib yetadi, demak, bu ifoda usuli arabiy harflarning egik, tik, buralgan shakllari chambarchas bogʻliq ekan. Bu sanʼat va u orqali yozuvchi aytmoqchi boʻlgan fikrni anglash uchun arab alifbosidagi harflar shaklidan habardor boʻlish lozim.

Har “alif” ikim bor edi nomada,
 Ming suvri bor edi hangomada.
 Saro barbi barcha sarafroz edi,
 Har birisi dogʻi olishi noz edi.
 Onda nekim “lom” edi-yu “mim”-u “dol”,
 Sochdin, ikki zulfdin erdi misol.
 Ayni bor edi oning ekun huri ayn,
 Solmoq uchun ehli jahon ichra shayn.
 “Miyim”i ogʻizdin dogʻi erdi nishon,
 “Lom” ila “bo” bir boʻlubon jon-jon...
 “Nuni oning qoshi edi surmagun.
 Yoyi siyah tuz edi yo ushbu “nun”...
 “Sin”i bu bechoraga erdi quyosh,
 “Ro”si qaro tunga qamar qildi fosh.⁹

⁹ Холид Расул. Нишотий. Хусн ва Дил. Достон. Шеърлар. -Т.: Ф.Фулом, 1967. 257-бет

Nishotiy yana irsoli masal, talmeh, iyhom, tajnis, ishtiyoq kabi she'riy tasvir usullaridan ham samarali foydalangan. Shoirning poetik mahorati asarning badiiy qimmatini oshishiga, mazmunning to'liq va tugal bo'lishiga sabab bo'lgan.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, "Husn-u Dil" dostonining poetik tuzilishi haqidagi ayrim xulosalarimiz shundan iboratki, doston badiiyati bemalol bundan ko'ra kengroq ko'lamdagi tadqiqotlar uchun manba bo'la oladi. Dostonning har bir bandini tahlil etsa, badiiy san'atga asos bo'ladigan qism topish mumkin. Bugungacha qilingan ishlarda, aynan "Husn-u Dil" dostonida qo'llanilgan badiiy san'atlar to'liq va to'g'ri tahlilga olib kirilmagan. To'g'ri, ba'zi izlanishlarda bu masalaning qisman asoslangan shakllarini uchratishimiz mumkin. Ammo to'laqonli, qat'iy tamoyil va tartibga, mazmun va mohiyat birligiga asoslangan tahlillarni topish qiyin. Chunki "Husn-u Dil" katta badiiylik va katta mazmun-mushohadaga ega asardir. Dostonning badiiyliigi va poetikasining mukammalligi ham ayni ana shu badiiy san'atlar orqali anglashiladi. Darvoqe, dostonning poetik-badiiy fazilatlarini haqida so'zlaganda Nishotiyning shohbayt bitish mahoratini chetlab o'tishning sira iloji yo'q. Bu hikmatli baytlar inson umri, hayotning ma'nosi, dunyo, tariqat, tasavvuri, mohiyati haqida. Mazmuni boy, mantiq'i kuchli baytlar dostonida bisyor. Bunday baytlar Nishotiyning shoir, mutafakkir sifatidagi mahoratini anglashga yordam beradi. Shu bois shoirning ba'zi shohbaytlari havola etamiz:

Kimki erur voqifi asrori shoh,
Bo'lg' sidur hol anga mundaq taboh.
Kimki fano bahrida g'avvos emas,
Durri baqo topmog'iga xos emas.
Shukr sharobiga ko'ngil bo'lsa xum,
Va'dadur anga laazidanna kum.
Saltanat-u izz-u fano boshqadur,
Maskinat-u faqr-u fano boshqadur.
Shoh demak kimsaki aylab havas,
Oxir anga oh bo'lur hamnafas.
Mush ila ishq o'lmag'usi yoshirun,
Zohir etar o't bor ekasini tutun.
Dard demoq lozim erur, ey habib,
Ongakim mushfiq esa, yoxud tabib.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abulg'oziy, Shajarai turk, T.1992; Xiva ming gumbaz shahri, T.,1997
2. O'zbek adabiyoti tarixi. 4-jild.-T.:1978
3. Karimov F; Muqimiy hayoti va ijodi, T.,1970
4. V. Abdullayev. Saylanma. 1982. 259-300-sahifalar

5. “Adabiy meros” jurnali, 1976. 3-son
6. Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti. Dok.diss... Samarqand, 1958.
7. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob.-T.: O'qituvchi, 1964.
8. Xolid Rasul. Nishotiy va uning “Husn-u Dil” dostoni//O'zbek adabiyoti masalalari.-T.:1962, 4-son.
9. Xolid Rasul. Nishotiy. Husn va Dil. Lirika.-T.: G',G'ulom, 1967. 1-18-betlar.
- 10.Rasulov X. O'zbek epik she'riyatida xalqchillik.-T.:1973. 29-56-betlar.
- 11.Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy.-T.: Fan, 1975.
- 12.O'zbek adabiyoti. III tom.-T, 1959. 444 – 467-betlar.
- 13.Hojjahmedov A. Husni ta'lil san'ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.
- 14.Hojjahmedov A. She'riy san'atlarni bilasizmi ? – T.; Sharq, 2001.
- 15.Hojjahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T. : Sharq, 2008.
- 16.Valixo'jayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan.-T.:Fan, 1974.